



## YOZ – OROMGOH BILAN SOZ!



## ALPOMISH



**Jazirama issiqda soya-salqin maskanda dam olishga nima yetsin! Tog' yonbag'rida joylashgan "Alpomish" bolalar yozgi dam olish oromgohi yoz faslida miriqib dam oladigan maskanlardan biri.**

Samarqand shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi maskan 220 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, bolalarning yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishi uchun yetarli sharoitlar yaratilgan.

Belgilangan me'yorlar asosida oromgohda bolajonlar uchun sharoitlar yaratilgan, – deydi oromgoh rahbari Samandar Abdumominov. – Bolajonlar tegishli tartibda tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan holda oromgohga

qabul qilinmoqda. Oromgohda ham shahar tibbiyot birlashmasidan mas'ul tibbiy xodimlar birkirtilgan holda bolajonlar doimiy nazorat qilib borilmoqda.

Shu kunga qadar 400 nafardan ortiq samarqandlik bolajonlar yozgi ta'tilni maroq bilan o'tkazdi.

**O'ZA fotomuxbiri  
Alisher ISROILOV olgan  
suratlar.**

## Diqqat, tanlov!

**O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi, Milliy teleradiokompaniya, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi hamda Badiiy akademiya mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan "ENG ULUG', ENG AZIZ" respublika tanlovini e'lon qiladi.**

Tanlovga "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan asarlar-materiallar qabul qilinadi.

**"ENG ULUG', ENG AZIZ" TANLOVI QUYIDAGI NOMINATSIYALAR BO'YICHA O'TKAZILADI:**

- yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari;
- bosma OAV xodimlarining jurnalistik ishlari;
- televideniye va radio ijodkorlarining materiallari;
- internet-jurnalistika;
- tasviriy san'at, foto asarlari

va dizayn ishlari;

- kino san'ati asarlari.  
**TANLOVGA TAQDIM ETILGAN IJODIY ISHLARGA QUYIDAGI HUJJATLAR ILOVA QILINISHI LOZIM:**

- muallif va uning professional faoliyati to'g'risida qisqacha ma'lumot (obyektivka);
- muallifning pasport nusxasi;
- ish joyidan tavsiyanoma;
- muallifning manzili va bog'lanish telefonlari.

Tanlovga 2020-yilning 1-avgustidan 2021-yilning 1-avgustigacha bo'lgan davrda e'lon qilingan materiallar – asarlar joriy

yilning 1-avgustigacha qabul qilinadi.

Tanlov g'oliblari Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz yillik bayrami arafasida mukofotlanadilar va ularning ro'yxati matbuotda e'lon qilinadi.

**IJODIY ISHLAR "ENG ULUG', ENG AZIZ" TANLOVIGA DEB KO'RSATILGAN HOLDA O'Z IJODIY YO'NALISHLARI BO'YICHA QUYIDAGI MANZILGA YUBORILISHI LOZIM:**

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, 100011. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Tel.: 71-244-64-61.

O'zbekiston "Tasviriy oyina" uyushmasi, 100011. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Tel.: 71-244-11-64.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 100066. Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, Adilbalar xiyoboni. Tel.: 71-231-83-49.

O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi, 100115. Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi 1-"A" uy. Tel.: 71-277-81-49.

Markaziy Osiyo – asrlar davomida umumiy madaniy makonga ega yagona organizm. Yagona tarix, tillarning o'xshashligi, umumiy urf-odatlar va qadriyatlar kelajakni birgalikda va o'zaro hamkorlikda qurish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Shavkat MIRZIYOYEV

**MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO 2021**  
15-16-IYUL, TOSHKENT

## MINTAQAVIY HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PRAGMATIK TASHQI SIYOSATI NATIJASIDIR

Avval xabar qilinganidek, shu yil 15-16-iyul kunlari Toshkentda "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tadi. Mazkur forum oldidan Markaziy Osiyo xalqaro instituti ekspertining mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi, uni yuzaga keltirgan asosiy omillar va mustahkamlash istiqbollari haqidagi maqolasi e'lon qilinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan yangi mintaqaviy siyosat natijasida Markaziy Osiyoda o'zaro hamkorlik yanada faollashdi. Ana shu sharoitda "davlatlararo munosabatlardagi ijobiy o'zgarishlar qay darajada barqaror va uning davomiyligiga qanday omillar va shart-sharoitlar yordam beradi?" qabilidagi savollarga javob izlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hamkorligi O'zbekistonning ochiqlik va xayrixohlikka asoslangan pragmatik mintaqaviy siyosati tufayli prinsipial jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. O'tgan besh yil

davomida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida tom ma'noda tarixiy natijalarga hamda o'zaro aloqador jarayonlarni rivojlantirishga erishildi.

Tahlillar ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng, mintaqada turli integratsion loyihalar amalga oshirilgan. Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti va Markaziy Osiyo ittifoqi kabi tashkilotlar shular jumlasidan. Biroq ayrim to'siq va kamchiliklar tufayli mazkur tashkilotlar faoliyati uzoqqa cho'zilmadi.

Davomi 4-sahifada.

## "YANGI O'ZBEKISTON" BOG'I: YANGICHA HAYOT VA YANGI DUNYOQARASH

**Ma'lumki, ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlarining tashkil etilishi, sayr maydonlari, xiyobonlar, istirohat bog'lari yaratish – xalqning turmushi, yashash madaniyatidan dalolat beradi.**



# YOSHLAR ITTIFOQI 14 NAFAR YOSHGA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IMTIYOZLI O'QISH UCHUN TAVSIYANOMA BERDI

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-noyabrda "O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolariga oliy ta'lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 14 nafar yoshga imtiyozli yo'llanmalar berildi.

Ushbu qarorda Yoshlar ittifoqining faol a'zolarini oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish maqsadida respublika komissiyasi taqdimnomasi asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta'lim muassasalarining pedagogika ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz

davlat grantlari asosida qabul qilish belgilangan. Qarorga asosan tasdiqlangan nizomning 3-bandida Yoshlar ittifoqining sardorlari, boshlang'ich tashkilotlardagi yo'nalish yetakchilari hamda ushbu tizimda ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan fidoyi yoshlar tavsiyanomaga ega bo'lishi belgilangan.

Joriy yilda tanlovning mahalliy bosqichlarida 1962 nafar nomzodning arizasi tuman (shahar) komissiyalari tomoni-

dan qabul qilindi. Shundan 1457 nafari Yoshlar ittifoqining sardorlari, 370 nafari boshlang'ich tashkilotlardagi yo'nalish yetakchilari hamda 135 nafari Yoshlar ittifoqi tizimida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan fidoyi yoshlardir.

Respublika komissiyasi tanlov nizomiga muvofiq hududiy komissiyalar taqdim etgan 36 nafar nomzodning Yoshlar ittifoqi tizimida erishgan yutuqlari, tizim rivojiga qo'shgan hissasi, yetakchilik qobiliyati va fidoyiligiga alohida e'tibor qaratgan holda o'rganib chiqib, quyidagi 14 nafar eng munosib yoshga imtiyozli yo'llanmalarni taqdim etdi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi — Erjanbayeva Gulayim  
Andijon viloyati — Nabiyev Hasanboy Maxammadjon o'g'li  
Buxoro viloyati — Qudratova Marjona Ashraf qizi  
Jizzax viloyati — Tojiyev Diyorbek Baxrillo o'g'li  
Qashqadaryo viloyati — Jo'raqulova Marjona Sadridin qizi  
Navoiy viloyati — Jalolova Lobarxon Sunnatillo qizi  
Namangan viloyati — Qosimov Xamidullo Abduqahhor o'g'li  
Samarqand viloyati — Norbekov Jaxongir Faxritdin o'g'li  
Sirdaryo viloyati — Norjigitova Shoxsanam Mamatkulovna  
Surxondaryo viloyati — Xursandova Sayyora Yo'ldosh qizi  
Toshkent viloyati — Ergasheva Nilufar Xasan qizi  
Farg'ona viloyati — Raimjonova Feruza Sobir qizi  
Xorazm viloyati — Fazilova Charosxon Mansurbek qizi  
Toshkent shahri — O'ktamova Malikaxon Sherali qizi



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIGA IMTIYOZLI QABUL QILISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ENG MUNOSIB YOSHLAR RO'YXATI



ERJANBAYEVA GULAYIM  
Yoshlar ittifoqining sardori



NABIYEV HASANBOY  
Yoshlar ittifoqining sardori



QUDRATOVA MARJONA  
Yoshlar ittifoqining sardori



TOJIYEV DIYORBEB  
Yoshlar ittifoqining sardori



JO'RAQULOVA MARJONA  
Yoshlar ittifoqining sardori



JALOLOVA LOBARXON  
Yoshlar ittifoqining sardori



QOSIMOV XAMIDULLO  
Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot yo'nalish yetakchisi



NORBEBKOV JAXONGIR  
Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot yo'nalish yetakchisi



NORJIGITOVA SHOXSANAM  
Yoshlar ittifoqi tizimida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan fidoyi yosh



XURSANDOVA SAYYORA  
Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot yo'nalish yetakchisi



ERGASHEVA NILUFAR  
Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot yo'nalish yetakchisi



RAIMJONOVA FERUZA  
Yoshlar ittifoqi tizimida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan fidoyi yosh



FAZILOVA CHAROSXON  
Yoshlar ittifoqining sardori



O'KTAMOVA MALIKAXON  
Yoshlar ittifoqining sardori

## YANGI ZAMON BUNYODKORLARI

Bugun yoshlarga e'tibor har qachongidan kuchli. Joriy etilayotgan har bir qonun ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizning har bir hududida tashkillashtirilgan "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" festivali Beruniy tumanida ham ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. "Yoshlar oyiligi" doirasida tumanimizda ko'pgina loyihalar amalga oshirildi. 4-sektor yoshlarining murojaatlariga ko'ra, o'z-o'zini band qilish maqsadida ularga jami 40 ta texnik ish qurollari: 14 ta tikuv mashinasi, 14 ta payvandlash apparati, 11 dona mikroto'lqinli pech, 1 dona kichik ta'mirlash ishlari uchun elektroburama berildi.

Shuningdek, festival doirasida "Sektor rahbarlari va yoshlar" uchrashuvi tashkillashtirildi. 4 ta sektor hududidagi oshpazlar o'rtasida "Osh musobaqasi", "STREET WORK OUT" ko'cha sporti, "STREET BOLL" basketbol o'yini, "Sog'lom hayot sari 5000 qadam", "Toza hudud" aksiyalari o'tkazildi.

Bu kabi musobaqalar yoshlarning faolligini oshirishda, ularning iste'dodini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musobaqa yakunida g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar Beruniy tumani

hokimligi va qator tashkilotlar tomonidan maxsus diplom va qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Beruniy tumanida 194 525 nafar aholi istiqomat qilsa, shulardan 111 902 nafarini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar davlat va jamiyatning faol qatlami, ishongan kuchi, strategik resursidir. Yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Beruniy boboning kindik qoni tomgan yurtdan yana Beruniylar, olim-u fuzalolar yetishib chiqadi. Yangi O'zbekistonni qurishga,



Uchinchi renessans davrining poydevorini yaratishga kirishgan ekanmiz, bu yo'lda barchamiz yoshlarni bir ovozdan qo'llab-quvvatlaymiz. Yangi O'zbekiston yoshlari birdamlikda, hamjihatlikda, qo'ni

qo'lga berib, yurt ravnaqi yo'lida bor bilim, tajriba va imkoniyatlarini ishga solishiga ishonamiz!

Atabek SAPARBAYEV,  
Beruniy tumani hokimi

**MUNOSABAT**

**E'TIROF**

# TA'LIMNING BARBOD BO'LISHI MILLATNING KASODGA UCHRASHIDIR

*Janubiy Afrika Respublikasidagi universitetga kiraverishda shunday so'zlar yozib qo'yilgan: "Har qanday millatni yo'q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq radiusga ta'sir qiladigan raketalariga hojat yo'q. Faqat ta'lim sifati pasaytirilsa va imtihonlarda talabalarga aldash uchun imkoniyat yaratilsa bas". Bunday shifokorlar qo'lga tushgan bemorlar o'la boshlaydi. Bunday quruvchilar qurgan binolar qulaydi. Bunday iqtisodchilar va hisobchilar qo'lidagi pullar izsiz yo'qoladi. Bunday diniy ulamolar tufayli insonlar ma'nan o'la boshlaydi. Bunday yuristlar va sudyalalar qo'lida adolat yo'qlik sari yuz tutadi... Qonun chiqaruvchilar qo'lida boshqaruv yo'q bo'ladi. "Ta'limning barbod bo'lishi millatning kasodga uchrashidir!"*

Bugungi kunda ta'lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilayotgani barchaga ma'lum. Umidimiz yulduzlari — aziz farzandlarimizning komil inson bo'lib yetishishi, ajdodlariga munosib avlod bo'lib kamol topishida, albatta, fidoyi ustozlarning mehnati alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu mehnat asnosida ko'zi yoniq, shijoatli, iqtidorli yoshlarimizga berilgan ta'lim o'zini oqlaydimi degan savol beixtiyor ko'ngil oynangizdan o'tishi tabiiy.

Islohotlarni kuzata turib, yurtimizda ta'lim tizimining rivojlanishi, sifatlari ta'lim berish uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlarning cheksizligiga amin bo'lasiz. Davlatimiz rahbari faoliyatining ilk kunlaridan bu sohaga jiddiy e'tibor bera boshladi. Biroq hali ta'lim tizimida yechimini kuyotgan qator muammolar sohaning rivoj topishiga to'siq bo'layotgani ham bor gap.

Joriy yil 16-iyun kuni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qator masalalarning qo'yilgani, ziyolilar mas'uliyatini oshirish bilan birga, ularning zimmasiga yanada ulkan vazifalarni yukladi. Oliy ta'lim tizimida o'quv yurtlari kengashlarining boshqaruvdagi roli sezilmasligi, asosiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlab beradigan kafedralar vakolatlari tor doirada ekanini ta'lim berish jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lanish ta'minlash va talabning o'z ustida ishlashi uchun muhit va sharoitni yaratishdagi qoniqsiz faoliyat tanqid qilinib, ularning vakolat doirasini kengaytirish yuzasidan topshiriq berildi.

Ilmiy salohiyatni oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish, oliy o'quv yurtlariga akademik va tash-

kiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi, endi har bir kafedra-ning faoliyati ilmiy salohiyat darajasi va yoshlarni seleksiyasida ilmiy faoliyatga jalb etish ko'rsatkichlariga qarab baholanishi, har yili 1,5 mingta mutaxassislik kafedralarining bir nafardan yosh olimlarini nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtlariga stajirovkaga yuborish amaliyoti yo'lga qo'yilishi, rektorlar tomonidan kafedralar huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilib, ularning o'ziga daromad topishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi bizzidan bor kuch-g'ayratimizni ayamay ishlashni talab etadi.

Shu asnoda OTMda plagiat va ilmiy g'oyalarni o'zlashtirishni bartaraf etadigan ilg'or axborot dasturlari joriy qilinishi, ilmiy tadqiqotlar sifati va natijadorligini oshirish bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasi faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish vazifasining qo'yilgani, joriy yil 1-avgustdan boshlab OTMga o'zlarining kengashlari tavsiyasiga ko'ra, xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish vakolati berilishi, xorijdan olib kelinadigan o'quv va ilmiy adabiyotlarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha taklif kiritish, yil yakunigacha 102 ta oliy ta'lim muassasasi kutubxona fondidagi 4 millionga yaqin adabiyotni to'liq elektron shakliga o'tkazish va mutaxassislik o'quv darsliklarini ikki baravarga ko'paytirish bo'yicha topshiriqlar berilgani, shuningdek, 1-sentabrga qadar barcha OTM kutubxonalari yagona tizimga ulanib, talabalar va tadqiqotchilar uchun tun-u kun foydalanish imkoniyati yaratilishi, bundan tashqari, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga "milliy obuna" bo'lish ishlari yakunlanib, barcha OTM mazkur tizimga ulanishi bilan bog'liq masalalarning kun tartiga olib chiqilgani sohada to'planib qolgan muammolarning yechim topishi uchun zamin tayyorlaydi.

Ko'p yillardan beri sohada faoliyat olib borayotgan inson sifatida jarayonni tahlil qiladigan bo'lsak, barcha masalalar aniq ko'rsatib berilgan va bularning har birining ijrosini ta'minlash maqsadida sohaning tegishli mutasaddilari-ga vazifalar belgilab berilgan. Hozirgi kunda 26 ta xorijiy oliy o'quv yurtlarining filliallari tashkil etilib, 100 dan ortiq yetakchi bilim dargohlari bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta mutaxassislik bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanishi, professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 barobarga oshirilgani, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining vakolatlari kengayishi, davlat oliy ta'lim yurtlarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, kasblar ro'yxatini bundan keyin Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlashi, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash tartibini, ulardan OTMda foydalanishga qo'yiladigan talablarni ham vazirlikning o'zi belgilashi, ayniqsa, o'quv reja va adabiyotlari, fan dasturlarini joriy etish, professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasini, yo'nalishlarini kelib chiqib, ta'lim shakllarini (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) belgilashni OTM boshqaruv kengashining o'zi hal qilishi, nufuzli xorijiy nashralarda muntazam maqolalar chiqarib kelayotgan, shogirdlari ilmiy ishlarini o'z vaqtida va sifatlari himoya qilgan ilmiy rahbarlarga 5 nafargacha doktorant va 3 nafargacha mustaqil izlanuvchi olish huquqi berilishi, barcha bilim yurtlarining kamida bir nafar prorektori chet elda o'qigan malakali mutaxassislardan tayinlanishi, 2022-yil 1-yanvardan 30 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berilishi kelgusida oliy ta'lim samaradorligini oshirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Millatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarning kamol topishi va Vatanni sevgan chin inson bo'lib yetishishi bizga bog'liq ekan, chin dildan, yaratib berilgan shart-sharoitlarga javoban fidoyilik bilan ishlashimiz talab etiladi. Sohani rivojlantirish, uni korruptsiyadan xoli tizimga aylantirishda muhtaram Prezidentimizga kamarbasta bo'lish vaqti allaqachon keldi.

**Mirzohid BOTIROV,**  
Andijon davlat tibbiyot instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori

*Bugun Andijon zaminida yoshlarga oid Davlat dasturlarining ijrosini ta'minlash yo'lida qator ishlar olib borilmoqda. Bu borada yoshlarimizning o'rni alohida bo'lmoqda. Yuksak iqtidor sohibi, umidli yoshlarimizdan biri Islomjon Bektashev. Ota-onasining mashaqqatli mehnatlari samarasi bois, ilmning yuksak cho'qqilari sari intilgan Islomjon 2015-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti davolash fakulteti talabasi degan nomga sazovor bo'ldi.*



## ILM YUKSALTIRADI

U tahsil davomida qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, shu kunga qadar ixtirolari uchun 8 ta patent sohibi, 70 dan ortiq ilmiy maqola, 3 ta o'quv qo'llanma, 4 ta monografiya, 150 dan ortiq tezislari muallifi hisoblanadi. 2020-yili Andijon davlat tibbiyot institutida o'tkazilgan "Tibbiyotning dolzarb muammolari" mavzusidagi yosh olimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida 1-darajali Diplom bilan taqdirlangan.

2021-yildan Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshidagi Yoshlar akademiyasi a'zosi bo'ldi.

2021-yil Islomjon uchun quvonchli keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qaroriga asosan, Islomjon Bektashev "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Yangi O'zbekistonda yangicha orzular qilish, buyuk bobolariga munosib izdosh bo'lish ishtiyoqida tinimsiz izlanishlar olib borayotgan Islomjonning yutuqlari bardavom bo'lishini tilab qolamiz.

\*\*\*

*Yurtimizda iqtidorli yoshlarning chuqur bilim olib, o'z sohasining bilimdoni bo'lib yetishib chiqishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shu imkoniyatlar samarasi sifatida yoshlar ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Andijon davlat tibbiyot institutining 4-bosqich talabasi Abdurauf Abdurashidov ham yurt taqdiri uchun daxldorlik hissi bilan yashayotgan, uning kelajagiga munosib hissa qo'shishdek ezgu niyatda izlanishlar olib borayotgan qobiliyatli yoshlarimizdan biri sanaladi.*



30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan Abduraufga erishgan natijalari e'tirofi sifatida Andijon viloyati hokimining bayram sovg'alari topshirildi. Abdurauf ko'p qavatli uйда onasi bilan birga yashaydi. Yoshlar kuniga munosib sovg'a bo'lgan kundalik ehtiyoj jihozlari yosh olim va uning oilasiga quvonch bag'ishladi.

Abdurauf Abdurashidov 2020-yilda "Innovatsion g'oyalari yetakchisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi hamda "Yil talabasi-2020" respublika tanlovida "Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi" nominatsiyasi bo'yicha mullaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qozog'iston Respublikasining Nursultan shahrida MDH davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan "Yilning eng yaxshi yosh olimi-2021" xalqaro tanlovida "Tibbiyot yo'nalishi" bo'yicha faxrlari 1-o'rinni egallab, ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, Abdurauf Birlashgan Arab Amirliklari va Pekinda o'tkazilgan xalqaro tanlovlari g'olibi hisoblanadi.

Abdurauf Abdurashidov Stanford hamda Harvard nufuzli universitetlarining doimiy tinglovchisi. 2 ta ixtirosi uchun patent olgan. U respublikatorik taklifi qo'llab-quvvatlanib, shundan 10 tasi amaliyotga tatbiq etilgan. 50 dan ortiq xorijiy va mahalliy jumallarda tezis va maqolalari chop etilgan.

# MINTAQAVIY HAMKORLIKNING YANGI BOSQIHI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PRAGMATIK TASHQI SIYOSATI NATIJASIDIR

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Birinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari 1990-yillar boshida milliy davlatchilikni shakllantirish ustuvor hisoblangan. Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqaviy davlatlari o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi keskin pasayishi va iqtisodiy aloqalarning zaiflashuvi natijasida xorijiy davlatlar bilan sherkatli munosabatlarini o'rnatish siyosati ustunlik qildi. Uchinchidan, siyosiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha davlatlarning shakllanishi davrida islohotlarning turli modellari va sur'atlari yuzaga keldi.

Ammo mintaqaviy hamkorlikka to'siqchilik qiluvchi ushbu sabablarga vaqtinchalik edi. Shu nuqtayi nazardan, "Markaziy Osiyo" toponimi turli tarixiy davrlarda turlicha foydalanilgan bo'lsa-da, avvalo geografik, etnomadaniy va siyosiy jihatdan, mintaqaviy rivojlanish davrida hech qachon davlatlararo munosabatlarini cheklOVchi chegaralar mavjud bo'lmagan.

Jumladan, mintaqaviy xalqlarining ko'p asrlik tarixi, madaniyati, dini va tili, umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi davlatlararo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga yakdillik javob qaytarish, ularni hal etishning samarali yo'llarini aniqlash va birgalikda taraqqiyotga intilish uchun muhim asos yaratadi.

Ko'plab xorijiy ekspertlar mintaqaviy hamkorlikning ahamiyatini yuqori baholaydi. Ularning fikricha, yagona tarix, geografik bog'liqlik, mushtarak madaniyat va din kabi omillar mintaqaviy davlatlarning turli xatar va tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishda o'zaro hamkorlikning muqarrarligi va ustuvorligini belgilab berdi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'z siyosiy va ijtimoii-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini, turli tashqi siyosiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarini tanlab olgan bo'lsa-da, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va energetika sohalaridagi ko'p yillik aloqalar, shuningdek, muntazam ravishda zamonaviy xatar va tahdidlarni bartaraf etish ularni doimo birlashtirib kelgan.

Mintaqaviy hamkorlikka ko'maklashuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

**1. Xalqlarning yagona tarixiy-madaniy merosi.** Barchamizga ma'lumki, Markaziy Osiyo jahon miqyosidagi yirik savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, azaldan madaniyat va sivilizatsiya aloqalarida muhim o'rin tutib kelgan. Qadimda Buyuk ipak yo'li (miloddan avvalgi II asr – milodiy XV asr) xalqaro transport yo'lagi sifatida nafaqat Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalarini, balki qit'alar va mamlakatlar o'rtasida axborot va sivilizatsion muloqot almashuvini ta'minlab, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi madaniyati, madaniy qadriyatlar hamda texnologik almashinuv uchun ham qulay sharoit yaratgan.

Zamonaviy Markaziy Osiyo mintaqasidagi geografik xilma-xillik, ko'p millatlik, ko'p

tillik, etnik va bag'rikenglik kabi xususiyatlar turli etlatlar va bir-biriga chambarchas bog'langan madaniy aloqadorlik, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi.

**2. Transport-kommunikatsiya va energetika infratuzilmasini rivojlantirish salohiyatining mavjudligi.** Transport-kommunikatsiya va energetika sohasidagi aloqalarni takomillashtirish hamda tranzit salohiyatini oshirish masalasi mintaqaviy davlatlarini birlashtiruvchi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ahamiyatli jihati shundaki, Markaziy Osiyo yana bir bor G'arb va Sharq o'rtasidagi asosiy transport markaziga aylanishi mumkin. Bunda transport-kommunikatsiya salohiyatining ahamiyati quyidagi omillar bilan belgilanadi: geoiqtisodiy (global iqtisodiy markazlar o'rtasidagi bog'lovchi aloqa), geosiyosiy (transport yo'laklari barqarorligi va xavfsizligi), infratuzilma (transport tarmog'ining yuqori o'tkazuvchanligi va nisbiy rivojlanishi), texnologik (yuklanmaydigan texnologiyalar va logistika xizmatlaridan foydalanilgan holda) omillar.

**3. Mintaqaviy xavfsizlikka umumiy tahdid va xatarlar.** Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik nuqtayi nazaridan umumiy tahdid va xavf-xatarlarga ega. Shu bois ular o'zaro va ko'p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish borasida ko'plab maqsadli harakatlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, mintaqaviy davlatlari o'rtasida xavfsizlik, barqarorlik va rivojlanishning muhim sharti sifatida BMT, SHHT, MDH, YXHT kabi xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro yaqin aloqalar o'rnatildi.

Ishonch bilan aytish mumkin, Markaziy Osiyo davlatlarini zamonaviy xavf va tahdidlarga qarshi turish zarurati birlashtiradi. Bunga esa mintaqaviy davlatlarning faol ishtiroki orqali erishish mumkin.

Bularning barchasi Markaziy Osiyoni hamkorlik va taraqqiyot mintaqasiga aylantirib, o'zaro aloqalarni mustahkamlash yo'lidagi muhim poydevor yaratmoqda. Ta'kidlash joizki, Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti etib saylanganidan so'ng, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi boshlandi. Ayniqsa, davlatlararo munosabatlarni butunlay yangi bosqichda rivojlantirmoqda. Bunda O'zbekistonning quyidagi omillar bilan ta'viflangan konstruktiv va amaliy siyosati yordam berdi.

Avvalo, mintaqaviy mamlakatlari avvalgi tajribalardan tegishli saboq chiqardi. Unga ko'ra turli mintaqaviy tuzilmalar birlashtiruvchi omil vazifasini o'tamasdan, aksincha o'zaro hamkorlikka o'ziga xos to'siq bo'ldi.

Shu tufayli Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyotning muhim masalalari bo'yicha hamjihatlikda ishlash uchun doimiy muloqot maydonini yaratishga kelishib oldi. Bu mintaqada qandaydir yangi xalqaro tashkilotni shakllantirish yoki o'z Nizomiga ega bo'lgan va davlat organlaridan yuqori turuvchi integratsiya tuzilmasini yaratish shart emasligidan kelib chiqildi.

Natijada, O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvini doimiy o'tkazish bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Birinchi va ikkinchi maslahat uchrashuvlari Nur-Sulton va Toshkent shaharlarida bo'lib o'tdi.

Ikkinchidan, mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi mintaqadagi barcha mamlakatlar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Uchinchidan, mintaqaviy hamkorlikning faollashuvi Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida barqaror va izchil o'sishni ta'minlashda eng avvalo mintaqaviy darajasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirish muhimligini anglashi natijasidir. Shu sababli, mintaqaviy hamkorlikning hozirgi holati dunyodagi geosiyosiy jarayonlarga javob sifatida emas, balki yaxshi qo'shniqlik va o'zaro ishonch, barcha muammoli masalalarni oqilona kelishuvlar asosida hal etish natijasida yuzaga keldi.

Shuning uchun ham, mintaqaviy hamkorlik istiqbollariga oid pessimistik qarashlar asossiz hisoblanadi. Bu borada Yevropa Ittifoqi, ASEAN, Shimoliy Kengash kabi integratsiya tuzilmalari modellari o'z taraqqiyot yo'liga ega Markaziy Osiyo bilan solishtirish mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Ingliz olimi Luiza Fossetning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyoda mavjud hamkorlik aloqalari "yumshoq mintaqalashuv" ta'rifiga mos keladi. Uning fikricha, bu yerda norasmiy me'yorlar, tartib-qoidalar va shakllar muvaffaqiyatli hamkorlikni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'zaro muloqot maydonchalarini yaratish, ko'plab norasmiy uchrashuvlarni o'tkazish va turli sohalar bo'yicha shartnomalarni imzolash mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashuvchi o'zaro aloqa normalari ishlab chiqilishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy davlatlari XXI asrda Markaziy Osiyoda do'stlik, yaxshi qo'shniqlik va hamkorlik to'g'risida besh tomonlama hujjat ishlab chiqilayotgani g'oyat ahamiyatlidir.

Mazkur format samaradorligini so'nggi yillarda mintaqada erishilgan makroiqtisodiy natijalar ham ko'rsatadi: savdo aylanmasi hajmining sezilarli darajada o'sishi, tashqi investitsiyalar va sayyohlar oqimi keskin ortishi shular jumlasidan. Xususan, 2019-yilda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo hajmi qariyb 7,1 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan (5,9 milliard dollar) 20 foizga o'sdi.

Bundan tashqari, to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham shunday holatni kuzatish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyo davlatlarida 2019-yilda qariyb 37,6 milliard dollar to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, bu 2016-yilga nisbatan (26,7 milliard dollar) 40 foizga ko'pdir. Shu bilan birga, 2019-yilda sayyohlar oqimi 18,4

million nafarni tashkil etib, bu 2016-yilga nisbatan ikki barobar yuqori ko'rsatkichdir.

Bundan tashqari, mintaqaviy davlatlari yuqori darajadagi hamkorlikni namoyish etib, turli masalalarda bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Masalan, koronavirus pandemiyasi boshlanganda mintaqaviy mamlakatlari o'rtasida yaqin hamkorlik, xususan, sog'liqni saqlash sohasida ma'lumotlar almashuvi faollashgani, transport, oziq-ovqat xavfsizligi va chegaralarni kesib o'tish bo'yicha harakatlar muvofiqlashtirish kuzatildi. Qolaversa, mamlakatlar bir-biriga dori-darmon, tibbiy va shaxsiy gigiyena vositalari ko'rinishidagi insonparvarlik yordamlarini jo'natdi. Bu borada strategik qarorlar qabul qilinib, kasallikning avj nuqtasi va o'sishining oldini olish, shuningdek, pandemiyaning iqtisodiyotga salbiy oqibatlarini minimalashtirish chora-tadbirlari ko'ridi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda YIMning Qozog'istonda 2,6 foiz va Qirg'izistonda 8,6 foiz pasayishi kuzatildi. Mintaqaning qolgan mamlakatlari o'sish sur'ati saqlanib qoldi (O'zbekistonda – 1,6 foiz, Tojikistonda – 5,4 foiz, Turkmanistonda – 5,8 foiz). O'z navbatida, Jahon banki 2021-yilda Markaziy Osiyoda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi o'rtacha 3,7 foizgacha tiklanishini taxmin qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlarining 2020-yil oktabr oyida Qirg'izistondagi voqealar bo'yicha oqshma bayonotiga alohida e'tibor qaratishtirish lozim. Unda "Qirg'iziston Respublikasining farovonligi, mintaqaviy xavfsizlik va butun Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror rivojlanishining muhim omili" ekaniga ta'kidlangan. "Yagona tarixga ega mamlakatlarimiz, endilikda umumiy kelajakni barpo etmoqda. Shu maqsadda, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy jihatdan kelajak avlodlar farovonligi yo'lidagi tinchlik, totuvlik va bunyodkorlik istagi ila birlashadilar", deyiladi.

Markaziy Osiyoda yuzaga kelayotgan mintaqaviy hamkorlik modeli xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan atroflicha muhokama qilinmoqda, bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlarining boy ijobiy tajribasini o'rganish muhimligi qayd etilmoqda.

BMT Bosh kotibining maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari N.Germanning so'zlariga ko'ra, "Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik tendensiyasi va yaxshi qo'shniqlik munosabatlarini mustahkamlash, iqtisodiy jihatdan bir-birini to'ldirish hamda davlatlarning madaniy va sivilizatsion yaqinligi sezilarli darajada oshmoqda. Hozir global pandemiya va koronavirus infeksiyasi tarqalishining davom etayotgani sababli, iqtisodiy turg'un sharoitida, davlatlararo hamkorlik va ishonchning ijobiy dinamikasi strategik ahamiyatga molik tovarlar, oziq-


ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va tibbiyot anjomlari, energiya manbalari ko'rinishidagi insonparvarlik yordami yetkazilishi uchun zarur va xavfsiz yo'laklarni taqdim etishga imkon yaratdi". Uning so'zlariga ko'ra, "ushbu murakkab davrda mintaqada mavjud birdamlik, hamjihatlik ruhidagi an'analardan o'mak olsa arziydi".

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasining xalqaro munosabatlari subyekti sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, Rossiya, Xitoy, AQSh, Hindiston va Yevropa Ittifoqi kabi strategik hamkor davlatlar mintaqaviy jarayonlarni inobatga olgan holda, o'zlarining tashqi siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritmoqda. Misol uchun, Tashqi ishlar vazirlari darajasidagi muntazam uchrashuvlar, ya'ni "Rossiya – Markaziy Osiyo", "Xitoy – Markaziy Osiyo", "Hindiston – Markaziy Osiyo", shuningdek, AQShning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus strategiyasi va Yevropa Ittifoqining Yangi Markaziy Osiyo strategiyasi qabul qilinishi buning yaqqol dalilidir. Mintaqaviy hamkorlik istiqbollarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi: birinchidan, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik bu ortga qaytarib bo'lmagan jarayon; ikkinchidan, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik o'z taraqqiyot yo'liga ega; uchinchidan, Markaziy Osiyodagi o'zaro hamkorlik nafaqat mintaqaviy davlatlari, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Qolaversa, Markaziy Osiyoda hamkorlikning rivojlanishi transmintaqaviy aloqalarni yanada mustahkamlashga qulay sharoit yaratmoqda. Xususan, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transmintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytirishda avval foydalanilmagan ulkan imkoniyatlar ochilmoqda. 2019-yil Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi doirasida qabul qilingan Qo'shma bayonot ushbu yo'nalishdagi muhim yutuq bo'lib, unda barcha davlatlarning Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatishga bo'lgan qat'iy pozitsiyasi o'z aksini topgan hamda ushbu diyorning Markaziy Osiyodagi savdo-iqtisodiy va infratuzilma loyihalari jalb etish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish muhimligi alohida ta'kidlangan.

Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyasi mintaqalararo ko'p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, shuningdek, dolzarb masalalarga javob izlash va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Baxtiyor MUSTAFOYEV,**  
Markaziy Osiyo xalqaro  
institut direktori o'rinbosari.  
O'ZA



ПО СЛЕДАМ ФОРУМА

**«Строители третьего Ренессанса» – под таким девизом в Ташкенте прошел Форум молодежи и студентов Узбекистана, посвященный Дню молодежи. На несколько дней Ботанический сад стал средоточием юношеской энергии и креатива, площадкой для инноваций и вдохновляющих стартапов, обмена опытом и идеями. Кульминация большого праздника – встреча юношей и девушек с Президентом. Глава государства пообщался с одаренной молодежью и выступил с поздравительной речью. Впечатлениями о том, как это было и что особенно запомнилось, делятся участники масштабного слета.**

## Энергия кипела на каждом шагу



**Акбаршох ХАЙДАРОВ,** лидер первичной организации Союза молодежи, студент 3-го курса филиала Российского государственного университета нефти и газа имени И.Губкина:

– В университете есть костяк активистов. Когда речь идет о каком-либо мероприятии, отправляем им информацию о предстоящем событии. В молодежном форуме решили принять участие двадцать человек, причем захотели помочь в каких-то организационных вопросах. Однако наша помощь не понадобилась. Все было продумано до мелочей и подготовлено в срок.

Зато губкинцы активно включились во все интеллектуальные и спортивные

состязания, которые проводились в Ботаническом саду. Презентации, игра «Заковат», турнир по настольному теннису, мастер-классы – ничего не обошлось без наших. Два студента защитили честь университета как победители соревнований по шахматам – получили дипломы I степени. Победы принес пинг-понг, в битве обладателей широкого кругозора «Заковат» у нас почетное третье место. Девушки отличились в конкурсе программистов на вре-

в состязаниях по настольному теннису. Кстати, и первое у однокурсника.


Родителям в Бухару отправил отчет о масштабном молодежном слете, который отличает четкость на всех уровнях. Это результат слаженной работы многих. Огромная благодарность за безупречную подготовку форума. Никогда еще не видел такого мероприятия, где каждый может проявить свои таланты, поделиться впечатлениями, получить награды и призы.



мя, создав за пять минут свое приложение. Сам в составе команды из пяти человек отвечал на вопросы «что? где? когда?», занял второе место

Понравилось и то, что никто не обижался к участию: оно было сугубо добровольным.

Общий интерес объединил разные слои молодежи: студентов, молодых ученых, предпринимателей, спортсменов, изобретателей... И каждый почувствовал то внимание, которое проявляется к сегодняшним юношам и девушкам, всестороннюю поддержку, направленную на раскрытие их огромного потенциала. Форум – не массовое гулянье с развлечениями, это важный день, показывающий, какую роль в Узбекистане отводят подрастающему поколению.



Вспомнил свою идею о внедрении единой карты студента, дающей определенные льготы ее владельцу. Высылал презентацию министру энергетики Алишеру Султанову, однако пока ответа не получил. Верю, что в дальнейшем инициатива будет внедрена. Конечно, каждому хотелось непосредственно обратиться к Президенту, но участников слишком много... Если бы посчастливилось мне, спросил бы, каким глава нашего государства видит будущее Узбекистана через 10–15 лет.


Смотрел на делегатов форума и представлял, какую пользу одаренная молодежь может принести родной стране, используя созданные для нее возможности. Все кружки, в которых можно было проявить себя, оказались заполнены, энергия кипела на каждом шагу. И широта интересов просто бросалась в глаза. Тот, кто хорошо разбирается в программировании, не ограничивался своим направлением. Защитив презентацию, шел играть в теннис, рисо-

вать или отвечать на тесты. Ориентир на гармоничное развитие, который проявлялся самым естественным образом, – активностью.

Обращение Президента слушал затаив дыхание, боясь пропустить хоть слово. Так и все собравшиеся в Ботаническом саду. Когда глава государства говорит, что будущее в руках молодежи, наверное, каждый в мечтах представляет себя его строителем, анализирует свои возможности, поступки и хочет использовать время плодотворнее. Каждый может стать тем, кем захочет. И не где-нибудь в Великобритании или США, а в родной стране, которая его вырастила и дала качественное образование.

Думал и о своем будущем, о той цели, которую поставил перед собой, – внедрить авторские идеи на буровых Узбекистана. По окончании университета собираюсь в Кашкардарью. Хочу оправдать звание строителя Нового Узбекистана добросовестным трудом.

(Окончание на 8-й стр.)



# КТО ВЫ, БУДУЩИЕ ВОЕНКОРЫ?



КУЗНИЦА КАДРОВ

*Информация, касающаяся определенной сферы, имеет свои особенности, которые подчас невозможно охватить в коротких спецкурсах. В результате даже материалы опытных журналистов нуждаются в согласовании. Так до определенного времени было со статьями военно-патриотической направленности. Случалось, после таких консультаций терялась авторская индивидуальность, и корреспонденту приходилось отстаивать свой стиль, в очередной раз согласовывая текст.*

*Что относится к разряду секретной информации, а что можно сделать достоянием широкой общественности, как рассказывать о вооружении, технической оснащённости и кадровом составе нашей армии, сотрудничестве с вооружёнными силами других государств?.. Теперь этим будут заниматься специалисты, имеющие мощную базу из профильных дисциплин.*

ком Алижом Сафаровым и однокурсницей Маликой Норбековой на полигон, показали красоту биатлона. Студенческое творчество высоко оценило командование Ташкентского военного округа: нам предложили сотрудничество.

Первокурсница Нилуфар Алиева из Джизакской области заявила о себе в региональных изданиях статьями и фоторепортажами. Особенно удачными получились материал о новом центре духовности и просветительства для военнослужащих в городе Пахтакоре и очерк о наставнике – лейтенанте Отабеке Норбаеве. Начала публиковаться, будучи школьницей. Гордо озвучивает свою мечту – быть генералом в области военной журналистики.

Начитанная девушка называет любимого писателя Саида Ахмада и заявляет о готовности продолжить пропаганду чтения, которой занималась в школьные годы.

– С детства хотел быть военнослужащим, – рассказывает о себе Фазлиддин Чориев. – Окончив колледж информационных технологий, дважды подавал доку-

менты в военные образовательные учреждения. Но не поступил. Отлично прошел отбор перед срочной службой – попал в Пограничные войска, получил рекомендацию командования части. Понял, насколько это трудное дело – Родину защищать. Решил, что людям нужно как можно больше рассказывать о «щите» нашей страны –

Два курса будущих специалистов уже осваивают дисциплины, необходимые для профессионального становления. В программе первого – традиционные для факультетов журналистики предметы, далее вводятся специальные.



информационные подборки... Нашли место и для юмора: стендап для передачи «Ватанпарвар» удался. Запомнились медиатуры в Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи, на полигон.

Многие за активную работу награждены почетными грамотами Министерства обороны. Практикуется молодежь не только в столице: будущие военные журналисты закреплены за пресс-службами округов. Студенческий билет служит пропуском в воинские части. Официально в пресс-службе Ташкентского военного округа зарегистрированы Камола Адхамова и Рухсора Ортикова, занявшие второе место в конкурсе на лучший инновационный видеоролик, который проводило Министерство инновационного развития.

Есть и блогеры. Второкурсник Суннатилла Овлакулов, отслуживший год и получивший рекомендацию командования воинской части, ведет блог «Харбий журналистика», который насчитывает более 800 подписчиков.

## РЕШИТЬ ПРОБЛЕМЫ

Вроде все гладко. Учебный процесс идет своим чередом. Студенты проявляют творческую активность. Однако... Требуется решения кадровый вопрос.

– Пока справляемся, на первом курсе 40, на втором – 48 человек, – говорит завкафедрой «Теория и практика медиа» кандидат

филологических наук, доцент Назира Ташпулатова. – Уже разработаны план и программа третьего и четвертого курса... Первым специалистам в сфере преподавать один человек. Нужны еще наставники. Конечно, привлекаем военнослужащих для проведения занятий. Они прекрасно знают свое дело, но не журналисты. Недостаточно учебно-методической литературы. Алижон Сафаров написал книгу «Основы

военной журналистики». Это капля в море.


Их легко отличить в городской суете, юношей и девушек в форме с надписью «Харбий журналистика». Целеустремленные, они представляют свою роль в раскрытии столь важной темы. А генеральная репетиция началась уже сегодня.

Людмила ПОЛОНСКАЯ

## ИСТОКИ

В 2019 году молодой Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана осуществил первый набор на направление бакалавриата «Военная журналистика». Ректор Шерзодхон Кудратходжа отметил, что открытие нового направления «повысит количество аналитических материалов на армейскую тематику, позволит более профессионально отображать военную жизнь в аудиовизуальных и интернет-СМИ».

Два курса будущих специалистов уже осваивают дисциплины, необходимые для профессионального становления. В программе первого – традиционные для факультетов журналистики предметы, далее вводятся специальные: экстремальная журналистика, право и этика военной журналистики, подготовка информации из горячих точек, действия журналиста в период военных столкновений, военные топография, психология и другие. При Национальном университете Узбекистана создан центр военной подготовки.



Студенты, помимо теории, которую закрепляют на практике, изучают методику воспитательной и идеологической работы, общевоинскую и тактическую подготовку.

## ЧЕСТЬ И ОБЪЕКТИВНОСТЬ – ЗА ОСНОВУ

Нашими гидами по новому направлению стали декан кандидат филологических наук, доцент Акбар Нурматов и старший преподаватель Алижон Сафаров, полковник в резерве, возглавляющий в Союзе журналистов совет по военно-патриотическому вос-

питанию. Представляя аудиторию, подчеркнули: «Случайных людей здесь нет».

Нет таких, кто подал документы в надежде на слабую информированность абитуриентов. Учатся юноши, получившие рекомендации командования по итогам срочной военной службы, продолжатели (кстати, для детей военнослужащих предусмотрены льготы) династий. Что называется, те, кто «в теме» задолго до поступления в вуз. Поэтому многие параллельно с обучением в университете набираются опыта в республиканских изданиях, готовят ролики, теле- и радиопередачи.

Второкурсник Адхам Мирзалимов из Намангана раньше работал режиссером-монтажером на телевидении. Тема стала близкой по роду деятельности, к тому же военные корни сыграли свою роль: отец – офицер.

– Все бабушка, – говорит Адхам. – Посмотрит интересную передачу и вроде сама себе вопрос задает: «Когда увижу внука на экране телевизора?» Сначала просто обещал, что постараюсь, потом это стало мечтой. Папа посоветовал поступать на «военную журналистику». Я за разносторонность будущих специалистов, ко-

торые не должны ограничиваться лишь одной сферой. Задействую студентов в разных сюжетах. Сегодня, к примеру, съемка ролика «Знаете ли вы этих людей?». Портреты висят на стенде. Можем протестировать и преподавателей.

К Дню независимости во время карантина выезжал с наставни-




об армии. И делать это профессионально, зная историю вопроса изнутри.


В школе относился к учебе не очень серьезно. Сейчас все изменилось. На меня смотрят как на старшего, более опытного товарища. По окончании университета вижу себя универсальным военным журналистом, работающим на телевидении и публикующим статьи в газетах и журналах. Хочу лучше изучить английский язык, чтобы сопровождать наших ребят на международные учения, конкурсы.

## ТАКАЯ НУЖНАЯ ПРАКТИКА

Речь пойдет не о той практике, которая закреплена официальной университетской программой. О работе в разных изданиях, позволяющей приобрести опыт до получения диплома.

Юноши и девушки побывали на конференции в Департаменте информационных и массовых коммуникаций Министерства обороны. У студентов появилась возможность участвовать во всех мероприятиях месяца военно-патриотического воспитания: брали интервью, проводили съемки, готовили





(Окончание. Начало на 5-й стр.)

## В стране многих возможностей



**Нуржaxon  
УММАТАЛИЕВА,**  
член первичной организации  
Союза молодежи Ташкентской  
медицинской академии, ответ-  
ственный за международные  
связи, студентка 6-го курса:

— Никогда не представляла, что буду занята только учебой. Общественная работа раскрывает перед личностью другие горизонты, служит формированию четкой гражданской позиции. В конце июня именно благодаря своей активности я стала делегатом Форума молодежи и студентов. Ждала события, представляя, каким оно будет. Масштаб превзошел ожидания.

Словно оказались в Стране многих возможностей, распорядок которой открывал разные «двери». За одной ты мог почувствовать себя оратором, за другой — окунуться в мир современного дизайна, за третьей — проверить кругозор. Станции, кружки, площадки... Иди испытывай себя! Собери быстрее всех кубик

Рубика — установи рекорд. Хочешь проверить базу знаний — участвуй в предметной олимпиаде. Подтвердил высокий уровень владения языком — получи сертификат!

При таком подходе невозможно заскучать. Берешься доказывать себе и другим, чего ты стоишь, какой информацией владеешь, какие навыки приобрел. Решил ознакомиться с достижениями сверстников — добро пожаловать к «укротителям» технологий. Здесь и демонстрация 3D-моделей в порядке вещей, и суперскоростное программирование.

А соревнование по владению иностранными языками?! Это в повседневной жизни мы, скажем, восхищаемся безупречным английским подруги. На форуме же полиглоты говорили на пяти и более языках. Победителей конкурса представили Президенту, и они беседовали о реформах, которые бы хотели провести в Узбекистане.

Атмосфера доброго соперничества располагала соревноваться, получать новые знания, концентрировать внимание и работать на скорость, буквально молниеносно выдавая ответы. Представители нашей пятёрки знатоков не могли и подумать, что не встретят заданий по биологии. Нам вариант показался физико-технологическим. Мобилизовав память, все-таки заработали сертификат.

Первые дни форума для себя назвала отборочными, потому что далее последовали презентации идей в самых разных сферах. Награждение и концертная программа стали торжественным завершением масштабного мероприятия.

Наверное, впечатления от ответственности не были бы такими яркими, если бы самой не удалось достойно выступить полиглотом. Говорю на японском, турецком, английском, немецком и русском. Узнала о новой организации — Агентстве по продвижению иностранных языков.

Запомнилось участие студентов консерватории. Исполнялись макомы, звучали народные мелодии и классическая музыка. Обилие дизайнерских работ в этнографическом стиле, знакомство с предметами дехканского быта — это подарок форумчанам от Национального института художеств и дизайна. Ребята настолько располагали к себе, что даже не умеющим рисовать хотелось попробовать себя в мастер-классах. В экологическом уголке проводили викторины, напоминая о бережном отношении к природе.

Представители восьми вузов столицы (среди них Ташкентская медицинская академия), образовавшие сводный хор, были удостоены чести исполнить Государственный гимн Узбекистана. В течение нескольких дней мы посещали репетиции, оттачивали искусство вокала под руководством специалистов.

Моя семья следила за форумом по телетрансляциям и имела о нем некоторое представление. Приходя домой, я делилась наблюдениями и впечатлениями, дополнила увиденное. Думаю, масштаб события передать удалось. Там, где не хватало слов, помогали эмоции.

Особый предмет гордости — награжденные. Слыша очередную фамилию, выстраивала общий портрет современника, которому все по плечу. Есть в этом групповом портрете место и для меня — будущего врача. Стоять на страже здоровья людей — миссия благородная, требующая обширных знаний и человечности. Обещаю, что не подведу!



## Найти свое место в жизни

— Я с большим воодушевлением слушала выступление Президента. В нем глубоко проанализированы все вопросы, связанные с жизнью молодежи. Особенно меня как педагога порадовало внимание, которое глава государства уделил образованию и подготовке кадров.

Так, руководитель страны говорил об обучении учащихся 10–11-х классов профессиям, пользующимся спросом на рынке труда, и разъяснил значение данной системы. Теперь вместе с аттестатом выпускники школ должны будут получить минимум одну востре-

бованную профессию, и это должно стать обязательным правилом, подчеркнул Президент.

Чтобы эта система работала, в хокимияты областей, районов и городов ежегодно до 1 сентября в разрезе школ должны будут представляться списки и программы профессионального обучения школьников, утвержденные местными Кенгашами. Палаты парламента закрепят это законодательно.

Кроме того, поднят вопрос о подготовке учащихся к работе на компьютерах не только на уровне уверенного пользователя, а как специа-

листов, получающих от этого доход. До конца текущего года завершится работа по подключению всех школ республики к высокоскоростному интернету. Дополнительно откроют пять тысяч компьютерных классов. Уроки информатики станут проводиться на основе современных кембриджских программ.

**Сохиба САМАДОВА,**  
директор общеобразовательной школы №23  
Кызырьского района Сурхандарьинской  
области, член Молодежного парламента:

В создаваемых для нашей молодежи условиях заложен глубокий смысл. Воспитание подрастающего поколения в уважении к национальным и общечеловеческим ценностям, любви и преданности Родине, обеспечении трудовой занятости играют важную роль в строительстве Нового Узбекистана. Как отмечено на форуме, человек, имею-



щий профессию, не будет ни от кого зависеть, не пойдет на поводу у разрушительных идей и обязательно найдет свое место в жизни.

# OAV — ERKIN QARASHLAR MAYDONI

**Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli respublikamizda 61 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil qilingan bo'lsa, kadrlar tayyorlash siyosati tufayli 2020–2021-o'quv yili yakunida OTmlar soni 131 taga yetdi.**

Yoshlarimizning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga qo'shayotgan hisssasi, ular uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqida so'z yuritilsa, ko'plab raqamlarni misol qilib keltirish mumkin. So'nggi to'rt yilda O'zbekiston yoshlari hayotida ulkan o'zgarishlar ro'y berdi, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodini yuzaga chiqarish borasida butunlay yangicha tartibda ish olib borildi. Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida ilgari surilgan takliflar, qabul qilingan qaror va farmonlar bu borada dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda matbuot va so'z erkinligiga e'tibor, munosabat ijobiy tarafga o'zgardi. Yoshlarning mediasavodxonligi oshib bormoqda. Ochiqlik, oshkorlik tamoyili asosida faoliyat yuritayotgan yosh jurnalist va blogerlarga keng imkoniyatlar berilmoqda. Jurnalist kadrlar tayyorlash mexanizmlari ham tubdan o'zgardi.

Amaliy ishlar samarasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi tegishli qarori bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. Universitet axborot sohasi uchun yosh jurnalist kadrlar, bir nechta

xorijiy tilni mukammal biladigan, yuqori malakali, xalqaro jurnalistlar hamda ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, respublikada mediata'lim tizimini yaratish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, mazkur yo'nalishlarda ilmiy va o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Ayni paytda Toshkent, Namangan va Samarqand viloyatlarida "Media markazlar" va "Yosh jurnalistlar maktabi" faoliyati yo'lga qo'yilib, ushbu dargohlarda 1200 dan ortiq yoshlar ta'lim olmoqda.

Shunga muvofiq mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan OAVlar soni ham yildan yilga ko'paymoqda. Misol uchun, bugun yurtimizda 1893 ta ommaviy axborot vositasi mavjud bo'lib, ularning 642 tasi gazeta, 482 tasi jurnal, 17 tasi axborotnoma-byulleten, 72 tasi telekanal, 37 tasi radio, 5 tasi axborot agentligi, 638 tasi veb-sayt hisoblanadi.

Yoshlarda axborotga bo'lgan ehtiyojning ortishi, turli gadjetlar yordamida kerakli ma'lumotlarni bir zumda topish imkoniyatlari kengayib borayotgani natijasida bu qatlamning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ham ortmoqda.

Masalan, ayni vaqtda mamlakatimizda

"Facebook"da 4,7 million, "Instagram"da 3,7 million, "LinkedIn"da 288 ming, "Telegram"da 18 million, "Odnoklassniki"da 16,7 million, "Twitter"da 51,6 ming va "V-kontakte"da 2,6 million foydalanuvchi mavjudligi qayd etilgan. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar tashkil etadi.

Ma'lumot o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, hozir respublikamizda bolalar va o'smirlar, yoshlar hayoti va faoliyatini yorituvchi 30 dan ortiq ommaviy axborot vositasi faoliyat olib bormoqda. "Yoshlar", "Bolajon", "Mening yurtim", "Aqlvoy" telekanallari, "Yoshlar ovozi" radiokanali, "Gulxan", "G'uncha", "Sog'lom avlod uchun", "Yosh kuch", "Yoshlik" jurnallari, "Yoshlar ovozi", "Молодежь Узбекистана", "Tong yulduzi", "Класс", "Sog'lom avlod" kabi gazetalar shular jumlasidandir.

Bugungi kun axborot siyosatini belgilashda, media islohotlar jarayonida jurnalist va blogerlarning o'rni, jamiyatdagi o'zgarishlar, yangiliklar, shu jumladan, og'riqli nuqtalar hamda muammolar xususidagi fikrlarining o'rni katta. Jamoatchilik nuqtayi nazarida aholi, ayniqsa, yoshlarning axborotdan foydalanish va uni qabul qilish jarayonlari tobora jadallashib, tezlashib bormoqda.

Yoshlarning bilimdon va tadbirkor, yangiliklarga intiluvchan, ijtimoiy hayotda faol shaxs bo'lib kamol topishida ular foydalanadigan axborot makoni o'ta muhimdir. Bunda nafaqat



olinajak axborotning mazmuni, balki ulardan foydalanish madaniyati, ya'ni shaxsning media savodxonligi ham katta rol o'ynaydi. Kishining jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga, tarqatilayotgan axborot va ma'lumotlarga nisbatan o'z fikrini aniq bayon etish, uni asoslab bera olish, voqea-hodisalarni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish malakasi – media savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, undan OAVning turli kanallari uchun maqola tayyorlashda, videomaterialni e'lon qilishda, muhim masalalar yuzasidan ijtimoiy reklama tayyorlashda yoki bahs-munozaralarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Ongli inson borki, hayotining har lahzasida yo axborot oladi, idrok etadi yoki uni uzatadi. Bu uch jarayonning to'rtinchisi – foydali axborotni saralay olish hamda keraksizlaridan xalos bo'lishdir. Buning uchun muayyan bilim, chuqur mulohaza va yuksak tafakkur talab qilinadi.

Yoshlar o'z qarashlarini bayon etishda yoki fikr-mulohazalarini tasdiqlashda media makonda, media vositalardan doimiy ravishda foydalanadi. Tabiiyki, OAV fuqarolik jamiyati xususidagi bahs-munozaralar uchun faol maydoncha vazifasini o'taydi.

An'anaviy OAVlarda, odatda, kattalarning fikri ustunlik qiladi, shu bois

yoshlar virtual makonda o'z qarashlarini bayon etishni afzal biladi. O'zini jamiyatning faol a'zosi deb his etish yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Har bir yosh jurnalist muayyan mediaresurs ustida ishlar ekan, o'z auditoriyasida faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga, shu orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishi kerakligini tushunishi zarur.

Xulosa o'rinda qayd etish joizki, mamlakatimizda yoshlar, jumladan, yosh jurnalistlar, blogerlar uchun yaratilgan barcha imkoniyatlar ularning o'z faoliyatini erkin olib borishi uchun xizmat qiladi. Yoshlar media makondagi axborotni tahlil qilish salohiyatiga, strategik istiqbollarni belgilashda mustaqil fikriga ega ekani jamiyat uchun o'ta muhim ijtimoiy va ma'naviy omillardan biridir. Shu jihatdan yoshlarda axborotdan foydalanish malakasi, madaniyati va ko'nikmalarini rivojlantirib borish bugungi global dunyoda yanada dolzarb bo'lib boraveradi.

**Jamshid NABIYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi  
Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar  
agentligi mas'ul xodimi





## ▶ NUQTAYI NAZAR

## QONUN ZAMON TALABLARI ASOSIDA YANGILANDI

*Din qadimiy va murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat ma'naviy hayotining ajralmas tarkibiy qismidir. Din va jamiyat hayotidagi dialektik aloqadorlikni belgilab beruvchi tamoyillardan biri – din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rganish, bashorat qilish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlar oldini olish hisoblanadi.*

O'zbekiston Respublikasining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda vijdon erkinligi huquqi barcha fuqarolarning diniy e'tiqod va dunyoqarashidan qat'i nazar o'z siyosiy xohishlarini bildirishda teng ishtirokini ifoda etadi.

O'zbekiston Respublika-

sining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni 1991-yilda qabul qilingan bo'lib, 1993-yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgarishlar bilan 1998-yilga qadar amal qilib keldi. Davr talablari asosida qonunni tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va 1998-yil 1-may kuni yangi tahrirda qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida diniy-ma'rifiy sohada respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqi

asoslarini mustahkamlash, fuqarolarning diniy e'tiqodini ro'yobga chiqarishda duch kelinayotgan muammolarni bartaraf etish, diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishini ta'minlash, dinlararo va millatlararo nizolarning oldini olish maqsadida mazkur qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi. Uning loyihasi 2020-yilning birinchi yarmida tayyorlangan va jamoatchilik muhokamasiga taqdim qilingan. Jamoatchilik tomonidan bildirilgan fikrlar asosida takomillashtirilgan qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida taxminan bir yil davomida o'rganilib, 2021-yil may oyida yuqori palata Senatga chiqarildi. Senatning joriy yil navbatdagi yalpi majlisida yangi tahrirdagi

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun ma'qullandi.

Kiritilayotgan o'zgartirishlarga asosan endilikda mahalliy diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun 50 nafar tashabbuskor yetarli hisoblanadi. Diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib-taomillari yengillashtirilgani, davlat xizmatlari to'liq elektron ko'rinishda amalga oshirilishi, ro'yxatdan o'tkazishni rad etish asoslari aniq belgilangani yangi tahrirdagi qonunga kiritilgan asosiy yangiliklardandir. Shuningdek, aholini qiynab kelayotgan muammolardan biri – fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi cheklov olib tashlandi. Vij-

don erkinligi huquqini amalga oshirish doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelish-movchiliklarning oldini olish maqsadida izohlar keltirilgan. Informatson texnologiyalarining uzviy taraqqiyoti sharoitida diniy mazmundagi materiallarni tarqatuvchi vositalarga aniqlik kiritilgan.

Qonunning yangi tahriri fuqarolarning vijdon erkinligiga oid o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish, konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Odil ERNAZAROV,**  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## ▶ YOZ - O'TMOQDA SOZ

## SANGZOR SOHILIDAGI DAMLAR

*Yurtimizda yoz faslining har bir kuni bolajonlar uchun taassurotlar boy o'tmoqda. So'lim va bahavo go'shalarda sayr qilish, turli tadbir va ko'ngilochar o'yinlar tashkil etish, sayohatlar uyushtirish, jismoniy tarbiya va sport musobaqalari o'tkazish ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.*

G'allaorol tumanining Qashqabuloq qishlog'ida joylashgan "Kamolot" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam oluvchilarning har bir kuni sermazzun o'tmoqda. Oromgohda hordiq chiqarayotgan 75 nafardan ortiq bolajonlarning sho'x-shodon qiyiqirig'i va o'yin-kulgilari bir dam ham tinmaydi.

Dam olish maskani Sangzor daryosi sohilida joylashgan bo'lib, bu yerdagi so'lim manzaralar, anvoyi gullar taratayotgan yoqimli hid, anhordan oqayotgan zilol suv barchaning diliga orom va halovat bag'ishlaydi. Qalin dov-daraxt, archazorlar bilan burkangan oromgohga tan-gadek ham quyosh nuri tushmaydi.

Oromgohda "Lochin", "Parvoz" va "Kamalak" guruhlarining devoriy gazetalar, bolajonlarning rang-barang bo'yoqlarda chizgan suratlari,

mohir qo'llar ijodi – o'yinchoqlar va nafis naqshlarni ko'rib, beixtiyor hayratlanasiz. Har bir xona ozoda va batartib, ko'chma kutubxona dam oluvchilar ixtiyorida. Bunda yetakchi Umida Tursunova, tarbiyachilardan Sohiba Xo'jabekova, Shahlo Safarova, Laylo Rahimovalarning hissasi katta bo'lmoqda.

– Bolalarning kayfiyati juda yaxshi. Ularning chehrasida quvonch balqib turibdi. Kelajagimiz vorislariga bo'lgan yuksak e'tiborni insoniylikning eng yuqori darajasi deb bilamiz, – deydi oromgoh yetakchisi Behzod Musulmonov.

Ayniqsa, Aziz Alimov rahbarligida tashkillashtirilgan turli tadbirlar, qo'shiq aytish va raqsqa tushish tanlovlari o'tkazish uchun kichik sahna bolajonlarga manzur bo'ldi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan sovg'alar



bilan taqdirlanmoqda. Shuningdek, dam oluvchilar Sangzor daryosiga tutash joydagi bog'-rog'lar, jilg'alar va buloqlarni tomosha qilib, muqaddas qadamjolarini ziyorat qildilar. Bu esa bolajonlarning yurtimiz tabiatiga mehrini oshirish barobarida milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashga o'rgatadi.

– Bu so'lim oromgohlarda olib borilayotgan har bir tadbir bolalar dunyoqarashini boyituvchi, ijodiy qobiliyatini shakllantiruvchi, ma'naviy kamol topishida yordam beruvchi asosiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilmoqda, – deydi oromgoh rahbari Ahmadali Toshmurodov.

Qisqasi, kunduzgi oromgohda bolalarning maroqli dam olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Tarbiyachi va yetakchilar bilan bir qatorda to'garak rahbarlari va sport yo'riqchilariga maslahatlar berib boriladi. Ular uchun tegishli qo'llanmalar taqdim etilgan.

**Azim SOLIYEV,**  
"Kamolot" kunduzgi oromgohining katta yetakchisi

## ▶ UCHRASHUV

## YOSHLAR MUAMMOSI HAL ETILDI

*Ishsiz yoshlarni band qilish, ularning taklif-tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga bugun alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayni shu maqsadda poytaxtimizning Shayxontohur tumanida ochiq havoda "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi.*

Unda 2021-yil o'tgan 6 oy davomida tumanida yoshlarga yaratilgan sharoitlar, kelgusi rejalar haqida ma'lumot berildi. Uchrashuvda 80 nafar yosh ishtirok etdi hamda ulardan bir nechta savol hamda takliflar kelib tushdi. Savollarga javob qaytarilib, takliflar atroficha muhokama etildi. Shuningdek, olti nafar yoshning taklifi shu joyning o'zidayoq hal etildi. 2 nafar yoshga tuman hokimligi tomonidan so'nggi ruzumdagi kompyuter jamlanmasi olib beriladigan bo'ldi.

– Men dizaynerlikka qiziqqan, – deydi tadbir ishtirokchisi Azamat Abdulatipov. – Videomontajlar qilishni bilaman. Ammo bu ish bilan shug'ullanishim uchun menga kompyuter kerak bo'layotgandi. Kompyuterim bo'lsa, o'zim qiziqqan sohada daromad olishim mumkinligini aytgandim, shu yerning o'zida menga rahbarlar tomonidan kompyuter jamlanmasi taqdim qilindi. Endi men ham ishsiz yoshlar qatoridan chiqdim. Bugundan boshlab o'zimga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanaman. Bundan behad xursand bo'ldim, tuman rahbarlariga o'z tashakkurimni aytaman.

Shayxontohur tumani hokimi Abdugahhor To'xtayev uchrashuvda "Eng namunalari sardorlar kengashi" tanlovida birinchi o'ringa kiritgan 13-maktab sardorlar kengashini alohida ta'kidlab o'tdi. Yetakchi va maktab rahbari tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

**Abdulloh ABDUMU'MINOV**



YOSHLIK ILHOMLARI

# Momomning hunari

(Hikoya)

– Momojon, nima qilyapsiz? – dedi Adiba.

– Kashta tiyakpaman.

– Xe, o'zingizni charchatib nima qilasis? Bozorda chiroyli, zamonaviy kashtadan tikilgan milliy kiyimlar ko'p-ku.

– Voy do'mbog'im-ey, bu momolarimizdan qolgan an'ana. Nasib, kelin bo'lsang, sepingga qo'shaman.

– Qo'ying-ey!..

Shu payt Adibaning dugonasi Komila kelib qoldi. Adiba dugonasini uyga taklif qildi. Komila momoni ko'rib, hayratdan qichqirib yubordi:

– Bu nima, momojon?

– Bu urchuq. Unda ip yigirdi, bolam.

– Bu-chi?

– Chiroz to'qiydigan qurilm.

– Shuncha hunaringiz bormi? Menga ham o'rgating, iltimos! – Komila dugonasi bilan o'ynagan kelganini ham esidan chiqarib, momoni savolga ko'mib tashladi.

Shu kundan ular yaqin us-toz va shogird bo'lishdi. Komila momodan o'rgangan hunari

tufayli viloyatda o'tkazilgan "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalining g'olibi bo'ldi.

Buni eshitib Adibaning g'ashi keldi. Komilaga: "Endi uyimizga kelma. Momomni ham urintirma. Momom betob", deb yolg'on gapirdi.

Komila momoni ko'rish uchun shirmoy kulcha, nov-vot, mayiz olib kelgan edi. Ammo Adiba "Momom uxlayapti", deb uni uyga kiritmadi. Komila ketgach, ichkaridan momosi:

– Kim ekan? Komila dugonang nega ko'rinmay qoldi?

– Endi kelmas ekan, hamma narsani o'rganib bo'libdi. Ko'rik-tanlovda ham 1- o'rinni olibdi. Xursandligini ko'rganingizda edi...

– Voy, 1-o'rinmi! Buncha yaxshi. Unda uyimizga taklif qil, bir tabriklab qo'yay.

– Yo'q, endi kelmas ekan, o'rganib bo'libdi, dedim-ku.

– Ha mayli. Lekin unga chiroz tikishni to'liq o'rgatmagan edim-da...

– Qiziqsiz-a, momo? Kim hozir chirozli kiyim kiyadi?!

Momosi biroz ranjidi. Chun-

ki Komilaga o'rganib qolgan edi-da.

Oradan bir oy o'tib, momoning sog'ligi haqiqatdan ham yomonlashib qoldi. Bu haqda qo'shnilardan eshitgan Komila momoni ko'rishga shoshildi.

Eshikni Adibaning onasi ochdi. Komila bilan momo ancha suhbatlashdi. Momoga rahmat aytib, yutuqlarini ko'rsatdi. Momo juda xursand bo'ldi.

Shu payt uyga Adiba kirib keldi. Momosining quvonganini,



Yulduz ERGASHEVA – 2005-yilda Termiz shahrida tug'ilgan. Viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi "Yosh jumalist va notiq" to'garagi a'zosi. Termiz shahridagi 10-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi.

7 yoshidan Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasida "Bolalar dunyosi", "Ekran-da bolajon", "Quvnoq bolajon" kabi bolalar ko'rsatuvlari hamda "Gulg'uncha" bolalar eshittirishi boshlovchisi sifatida minglab iqtidorli yoshlarni ekranga olib chiqqan.

Chanqovuz milliy cholg'u asbobiga mehri balland. Uning ijrosidagi "Chanqovuz" raqsi, chanqovuzda kuy chalishi, u haqdagi ko'rsatuv, maqola va hikoyalari maqtovga loyiq.

Yulduz Ergashevaning ilk kitobi "Momomning o'g'itlari" deb nomlanib, undan milliy urfodat va an'alarimizga oid jilji hikoyalari o'rin olgan.

ularning xursandchiligini ko'rib, qilgan ishidan pushaymon bo'ldi. Ularning yoniga kelib "Momojon, men ham gilam to'qishni o'rganmoqchiman", dedi.

Momosi o'rindan turib, sandiqni ochdi. Ichidan qo'lda to'qilgan 5 xil gilamni ko'rsatdi.

– Mana bu "Patli" gilam deb ataladi. Bu esa "Taqir" gilam, bular "Tekin", "Beshir" gilamlari...

Ularning suhbatlari ancha davom etdi. Momosining ahvoli yaxshilanib qolganini sezgan Adiba xursand edi. O'sha kundan ular hunar o'rganishga kirishdi. Momosining sog'ligi yana yaxshilandi.

Yulduz ERGASHEVA



## Do'stlik

(ERTAK)

Uzoq bir o'rmonda hayvonlar ahil-inoq yashashar ekan. Ammo katta shaharlarda ham kichik ko'ngilsizliklar bo'lgani kabi bu o'rmonda ham muammolar uchrab turarkan...

O'rmondagi fil bolasi bilan hech kim do'stlashishni, o'ynashni xohlamas ekan. Uning bahaybatligi va yurgandah gurs-gurs etib ovoz chiqarishi boshqalarga yoqmas ekan. Bundan filchanning dili qattiq og'rirkan. "Nahotki endi men bilan hech kim do'stlashmasa?" deb ko'ngli o'ksirgan.

Bir kuni bolasining yig'lab turganini ko'rgan ona fil uning yoniga kelib: "Bolam, tashqi qiyofa hech qachon hech qanday rishtaga putur yetkaza olmaydi. Ular sen bilan do'st

bo'lishi uchun sen o'zingni shunday ko'rsatib qo'yginki..." debdi. Filcha hayron bo'libdi, onasining bu so'zlarini uncha anglamabdi...

Kunlardan bir kuni filcha daryo bo'ylab ketayotsa g'alati tovushni eshitib qolibdi va darrov ovoz kelayotgan tomonga yuguribdi. Qarasa, kichkina kuchukcha suvga cho'kayotgan emish...

Nima qilishini bilmay qolibdi. Shu atrofda chug'urlab yurgan qushlar galasini chaqiribdi va bo'layotgan voqeani tushuntirib berishga harakat qilibdi. Qushlar darrov ishga tushishibdi. Shox-shabbalar keltirib, suvning kichik qismini berkitishga muayassar bo'lishibdi. Suv

oqimi biroz pasaygach, filcha suvga kirib xartumini cho'zibdi va kuchukchani qutqaribdi.

Nobud bo'lishiga bir bahaya qolgan kuchukcha rahmatlar aytibdi. Qushlar ham "Sen bo'lmaganingda biz bu voqeadan bexabar qolib, do'stimizdan ayrilib qolardik", deyishibdi. Barcha filchadan minnatdor bo'libdi. Va shu kundan boshlab filchanning do'stlari ko'payib, uni "qahramon" deb atay boshlabdilar.

Va shunda filcha onasining so'zlariga tushunib yetibdi.

**Umida SOBIROVA,**  
Romitan tumanidagi  
23-IDUMning 7-sinf  
o'quvchisi, "Yangi asr  
avlodi" to'garagi a'zosi

## Dunyodagi eng yaxshi joy

(BO'LGAN VOQEA)

Notanish juvon avtobusga chiqdi. Ko'zlari jiqqa yosh. Ko'nglida to'fon ko'tarilgan, yuzlari siniq. To'satdan haydovchining yoniga bordi-yu:

– Meni dunyodagi eng yaxshi joyga elting! – deb qoldi. Haydovchi u manzilni yaxshi biladigandek xotirjam ohangda:

– Xo'p, – dedi.

Men hayratdaman. "Dunyodagi eng yaxshi joy qayer ekan?", deb qiziqdim. Juvon ko'zlagan baxt o'lkasigacha yetib borishni istab, avtobusdan tushmadim. Haydovchi bir qabriston oldida to'xtadi-da:

– Tushing, sizning manzilingiz shu yerda, – dedi. – Siz mana bu marhumlarga bir nazar tashlang! Hayotingiz naqadar ajoyibligini, sizni har tongda uyg'otishni unutmagan Alloh borligini, qanchadan-qancha insonlar erta tongdan uyg'ona olmaganini his etasiz. Ertaga bizning ham so'nggi manzilingiz shu yer. Bir uyum qora tuproq makonimiz. Siz iztirobdasiz. G'am-anduh chekapsiz. Ammo bu holatigizni insonlarga emas, yolg'iz



Allohga aytishni o'rganing. Zero, parvardigor istamasa, bandasi nima qila olardi?! Qalbingizdagi dardning davosini joynamozingiz ustida topasiz!

Ayol avtobusdan istamaygina tushdi. U o'z xatosini tushunib, qabristonga uzoq termulib qoldi...

**Munira IXTIYOR qizi,**  
Buxoro davlat universiteti talabasi

# Imtiyoz boyovutlik yoshlarning nimaga qodirligini ko'rsatdi

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida subsidiya tariqasida mehnat qurollari bilan ta'minlangan yoshlar daromad olishni boshladi.

Tumandagi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib, o'zini o'zi band qilish istagini bildirgan 57 nafar yoshga subsidiya tariqasida zarur asbob-uskunalar va mehnat qurollari berilgan edi.

Shulardan 29 nafari tikuv mashinasi, 8 nafari payvandlash uskunasi, yana shuncha yoshga motokultivator texnikalari, telefon tuzatish jihozlari jamlanmasi, sartaorshoxona va qurilishda foydalanadigan elektr jihozlari olib, shu orqali mustaqil faoliyatlarini yo'lga qo'ydi.

Yoshlar ushbu imtiyozlar doirasida olib borayotgan faoliyatlarini bilan o'zlariga berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanayotganini yana bir bor isbotladi. Zarur anjomlar bilan birga ulkan



ishonch va umidda ega bo'lgan yoshlar endilikda halol mehnat qilib, o'z daromadini oshirishga erishyapti.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan subsidiya hisobidan asbob-uskuna va jihoz olgan yoshlarning faoliyati, ularning muammolari muntazam monitoring qilib boriladi. Zarur hollarda ularning tadbirkorlik faoliyatini bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga ham amaliy yordam beriladi.



**YOSHLIK ILHOMI**  
Muxammadkarim  
UBAYDULLAEV,  
student  
Samarqandского  
института экономики  
и сервиса

## Весна

Апрель бушует, переменам рад,  
Темно, в огнях небесные одежды,  
А в воздухе – знакомый аромат:  
Весна так пахнет – светом и надеждой.

В горах могучих тихо тает снег,  
И отраженье солнца блещет в лужах.  
Раскрыв объятия девушке Весне,  
Земля проснулась после зимней стужи.

Простор, согретый нежностью, теплом,  
И тонкий аромат цветов манящий,  
Восход смелей стучится в каждый дом,  
А в нашу жизнь с весною входит счастье.

Перепополняет грудь мою весна,  
И не могу я ею надыхаться,  
Тоску и горечь унесет она –  
Возможно ль не писать, не восхищаться?!



Mohinur BEGIMQULOVA,  
Toshkent shahri Mirzo  
Ulug'bek tumanidagi  
49-maktabning 6-sinf  
o'quvchisi

## Nuqta

Fikrning oxiriman,  
Gapning javohiriman.  
Nuqtaman – gapda darak,  
Nomim bilsangiz kerak.

So'roq, undov va vergul  
Nuqtaning chin do'stlari.  
Ular bilan har gapning  
Bitar kam-u ko'stlari.

## “YANGI O‘ZBEKISTON” BOG‘I:

# YANGICHA HAYOT VA YANGI DUNYOQARASH

O'zbekiston bayrog'ida yashil rang bor – u barokatli tabiatni aks ettirishi bilan birga navqiron yoshdagi mustaqil davlatning ifodasidir. Bugun bu yurtning yosh va yashil bog'larida uning istiqbolini ham aks etmoqda. Jazirama issiqda aholi yashilik sari intiladi, xiyobonlarga, soya-salqin bog'larga oshiqadi. Xo'sh, O'zbekistonda shunday yashil bog'lar yetarli? Xuddi shu savolga kuni kecha Prezidentimizning Qibray tumanidagi "Yangi O'zbekiston" bog'i qurilishiga tashrifi chog'ida

ko'pchilik javob topdi.

104 gektarlik maydonni qamragan mazkur bog' milliy davlatchilik tarixi, xalqning bugungi intilishlari va Uchinchi Renessans maqsadlarini o'zida mujassam etmoqda. Endilikda bog' orqali Yangi O'zbekistonning yangi qiyofasi bo'y ko'rsatadi. Bog' kompleksida joylashuvchi "Istiqlol" majmuasi, sport maydonchalari, bolalar o'yingohi, sokin hudud va favvoralar – bularning barchasi xalqimizga xizmat qiladi.

Ertaga bog'dagi so'lim

kashtanlar havosidan nafas olib, gullar ichida o'ynab yurgan farzandlarini kuzatib o'tirgan yoshlarni, eman daraxtiga suyanib, qadim tarixni yod etayotgan nuroniyarlarni, favvoralar raqsidan zavqla-



naotgan bolalarni ko'rgan har bir inson o'zida qalban yangilikni sezadi. "Yangi O'zbekiston" bog'i barpo etilgach, uning afzalliklaridan bahramand bo'lganlar ertaga "Yangi Farg'ona", "Yangi Samarqand" kabi ko'plab bog'larga asos solsalar, ne ajab?



Buyuk tariximizga nazar solsangiz, Amir Temur tarixda birinchi marta shaharlarni bog'lar bilan o'rab olish amaliyotini kiritgan. Sohobqiron Temur shaharlarning ekologik holatini yaxshilagan, issiq shaharning havosini tozalash va mikroiklim yaratish kabi bog'chilik san'atiga asos solgan. Shuningdek, biz sevib mutolaa qiladigan, dunyoning yetti mo'jizasi sifatida tan olingan qadim Bobilning "Semi-ramida" osma bog'larining yaratilishi ham xuddi shunday davlat rahbarlarining tashab-

buslari bilan boshlangan.

Tariximiz ildizlarida ko'rinib turganidek, biz – yaratuvchan xalqimiz. Dono xalqimizning "Yaxshidan bog' qolar" degan naqlika ham chuqur hikmat bor. Bugun islohotlarimiz orqali bunyodkorlik, yaratuvchilik, tashabbuskorlik sari intilar ekanmiz, ertaga farzandlarimiz, kelajak avlod bizdan o'rmaq oladi!

**Bahodirjon  
SHERMUHAMMADOV,  
Farg'ona davlat universiteti  
rektori, pedagogika fanlari  
doktori**

